



O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: TAFAKKUR VA TARAQQIYOT

Hasanboyev To‘raqul Foziljon o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o‘qituvchisi,

Saidakbarova Zuxra Hojiakbar qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda shakllanayotgan Uchinchi Renessans jarayonining tarixiy asoslari, mazmun-mohiyati va avlodlar tafakkuridagi o‘zgarishlar ilmiy tahlil qilinadi. Birinchi va Ikkinchi Renessanslar tajribasi bilan zamonaviy uyg‘onish o‘rtasidagi uzviylik, multidisipliner tafakkur, ma’naviy yuksalish, texnologik taraqqiyot va yoshlar roliga e’tibor qaratiladi. Maqola Uchinchi Renessansning O‘zbekiston kelajagi uchun ahamiyatini ilmiy nuqtayi nazardan yoritadi.

Kalit so‘zlar: Renessans, uyg‘onish davri, Uchinchi Renessans, Yangi O‘zbekiston, ilm-fan, ma’naviyat, ta’lim islohotlari, innovatsiya, yoshlar tafakkuri.

Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga nazar tashlaganda, Renessanslar ilm-fan, falsafa, san’at va jamiyat tafakkurida tub burilish yasagan tarixiy jarayonlar sifatida ajralib turadi. “Renessans” atamasi dastlab XIV–XVI asrlarda Yevropada sodir bo‘lgan madaniy uyg‘onish davriga nisbatan qo‘llanib, unda inson erki, tafakkur erkinligi, ilmiy izlanishlar va antik merosga qaytish asosiy g‘oyalar sifatida namoyon bo‘lgan[1, 125-128-b.]. Dunyo tarixida esa Sharq uyg‘onishining IX–XII asrlardayoq yuzaga kelgani, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar ilm-fanni yangi bosqichga ko‘targani isbotlangan[2, 45-52-b.].

Bugungi O‘zbekiston taraqqiyot jarayonida “Uchinchi Renessans” g‘oyasining ilgari surilishi shu tarixiy uzviylikning davomi bo‘lib, u milliy meros va



zamonaviy innovatsion taraqqiyot uyg'unligiga asoslanadi. Bu jarayon avlodlar tafakkuridagi yangi burilishni yuzaga keltirmoqda.

Uchinchi Renessansning shakllanishi va mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, Mustaqillikdan keyingi yillarda O'zbekiston jamiyatida milliy o'zlikni tiklash, tarixiy xotirani boqiyashtirish, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga keng yo'l ochildi. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da ilm-fan, innovatsiya, yoshlar siyosati va ma'naviy tiklanish Uchinchi Renessansning poydevori sifatida belgilangan[3,12-21-b.].

"Renessans" so'zi fransuzcha *renaissance* — "qayta tug'ilish" degan ma'noni anglatib, tarixda jamiyatning ma'naviy-axloqiy, ilmiy va madaniy yuksalish jarayonini ifodalaydi. O'zbekistonda shakllanayotgan Uchinchi Renessans ham milliy tarix, qadriyatlar va modernizatsiya tamoyillariga asoslanadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, hozirgi kunda avlodlar tafakkuridagi burilish jarayonlari sodir bo'lmoqda. Uchinchi Renessans avlodining eng muhim belgilari quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1.Multidiscipliner tafakkur — bugungi yoshlar bir vaqtning o'zida texnologiya, ijtimoiy fanlar, san'at, til va gumanitar bilimlarni uyg'un o'rganib, yangi ilmiy yondashuvlar yaratmoqda. Bu jarayon "ko'p yo'nalishli tafakkur modeli"ni shakllantirmoqda, ilmiy-innovatsion fikrlashni kuchaytirmoqda [4, 60-64-b.].

2.Global tafakkur va ochiqlik — raqamli transformatsiya jarayonlari, xorijiy ta'lim dasturlari, xalqaro hamkorlik yoshlarning dunyoqarashini kengaytirmoqda. Bu esa ilmiy almashinuv va yangi g'oyalar kirib kelishiga zamin yaratmoqda.

3.Mas'uliyatli fuqarolik — Uchinchi Renessans avlodi jamiyat hayotining faol subyekti sifatida namoyon bo'layapti. Ular ijtimoiy islohotlar, innovatsiyalar va madaniy yangilanishlarda bevosita ishtirok etmoqda.

4.Ijodiy va ma'naviy o'sish — kitobxonlik madaniyatining o'sishi, tarixiy merosga qaytish, teatr, san'at va adabiyotning rivojlanishi yosh avlod ma'naviyatini



mustahkamlamoqda[5, 78-82-b.]. Ushbu jarayon har qanday Renessansning asosiy sharti bo'lgan ma'naviy uyg'onishni kuchaytiradi.

Ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar — Uchinchi Renessansning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Prezident maktablari, ijod maktablari, xalqaro universitetlar, ilmiy grantlar, startup akseleratorlari kabi tashabbuslarning yo'lga qo'yilishi Uchinchi Renessansning amaliy ifodasi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar hajmi oshmoqda, fan olimpiadalari va xalqaro ilmiy loyihalarda O'zbekiston yoshlarining faolligi ko'zga tashlanmoqda.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, biotexnologiya, muhandislik, axborot tizimlari — bular Uchinchi Renessansning ilmiy va texnologik qiyofasini belgilab bermoqda. Bu jarayon mamlakatni XXI asrning ilg'or ilmiy markazlaridan biriga aylantirish maqsadiga xizmat qiladi.

Ma'naviy uyg'onish esa, Renessansning yuragidir. Har qanday uyg'onish davri ma'naviy poydevorsiz shakllanmaydi. Tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, milliy merosni targ'ib qilish, kitobxonlikni rivojlantirish, milliy adabiyot va san'atning yangi bosqichga ko'tarilishi Uchinchi Renessansning ma'naviy mezonlaridir. Jadidlar merosiga qaytish, ularning ma'rifatparvarlik g'oyalari yosh avlod uchun muhim o'rnak bo'lib xizmat qilmoqda[5, 78-82-b.].

Uchinchi Renessansning tarixiy va strategik ahamiyati haqida so'z borar ekan, Birinchi va Ikkinchi Renessanslar insoniyat sivilizatsiyasiga buyuk allomalar, olimlar, san'atkorlar va mutafakkirlar bergani singari, Uchinchi Renessans ham O'zbekistonning kelgusi o'n yilliklaridagi intellektual, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratmoqda. Bu jarayon zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan, mustaqil fikrlovchi, milliy g'ururi baland, global raqobatga tayyor avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, Uchinchi Renessans O'zbekiston tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichi bo'lib, u milliy meros, ilm-fan, ma'naviyat va zamonaviy innovatsiyalar uyg'unligida shakllanmoqda. Avlodlar tafakkuridagi



yangilanish, global fikrlash, mas'uliyatli fuqarolik, ilmiy-texnologik salohiyatning o'sishi mazkur uyg'onishning asosiy ko'rinishlaridir. Agar bu jarayon izchil davom ettirilsa, O'zbekiston yaqin kelajakda mintaqaga emas, balki global miqyosda ham ilm-fan va madaniyat markaziga aylanish salohiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Qosimov B. Sharq uyg'onishi: tarix va tafakkur. Toshkent.2015.
- 2.Karimov A. Renessanslar falsafasi va O'zbekiston taraqqiyoti. Toshkent. 2020.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. 2021.
- 4.Yo'lchiyev D. O'zbekistonda ilm-fan va innovatsiyalar rivoji. Toshkent. 2022.
- 5.Yodgorov A. Uchinchi Renessans: konsepsiya va amaliyot. Toshkent. 2023.